

**THE PLACE OF SECULAR SCIENCES IN THE PEDAGOGY OF JADIDCHI:  
EXPERIENCE OF TEACHING NATURAL SCIENCES AND LANGUAGES***Atoyeva Khumora A'zamovna**2nd year master's student, Bukhara Innovation University*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida dunyoviy fanlarning o'quv dasturiga kiritilishi masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotda tabiiy fanlar – arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik hamda til o'qitish – ona tili, arab va rus tillari bo'yicha jadidchilarning pedagogik tajribasi batafsil o'rganilgan. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi jadidchilarning dunyoviy ta'lim borasidagi qarashlari va amaliy faoliyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, dunyoviy fanlar, tabiiy fanlar, til o'qitish, ona tili, savtiya usuli, usuli jadid, ta'lim islohotlari, Turkiston ma'rifati.

**Abstract** This article analyzes the integration of secular sciences into the curriculum of "New Method" schools established by the Jadid movement in Turkestan during the early 20th century. The research examines in detail the pedagogical experiences of the Jadids regarding natural sciences-such as arithmetic, geography, and natural history-as well as language instruction, including the mother tongue, Arabic, and Russian. The article provides a scientific exploration of the views and practical activities of prominent Jadid figures such as Mahmudkhujja Behbudi, Munavvarqari Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni, and Fitrat concerning secular education.

**Keywords:** Jadidism, secular sciences, natural sciences, language teaching, mother tongue, phonetic method, New Method, educational reforms, Turkestan enlightenment.

**Аннотация** В данной статье анализируется вопрос включения светских наук в учебные программы новометодных школ, созданных движением джадидов в Туркестане в начале XX века. В исследовании подробно рассматривается педагогический опыт джадидов по преподаванию естественных наук (арифметика, география, естествознание) и языковых дисциплин (родной язык, арабский и русский языки). Научно освещаются взгляды и практическая деятельность таких просветителей-джадидов, как Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркары Абдурашидханов, Абдулла Авлони и Фитрат в сфере светского образования.

**Ключевые слова:** джадидизм, светские науки, естественные науки, обучение языкам, родной язык, звуковой метод (усули савтия), новый метод (усули джадид), реформы образования, просветительство Туркестана.

XIX asrning oxirgi choragida Turkiston o'lkasida boshlangan jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra keng qamrovli ma'rifiy-islohotchilik harakati bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri mahalliy aholining ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish edi. Jadidchilar o'z davrining dolzarb muammolarini chuqur his etgan holda, an'anaviy maktabi qadimlarda faqat diniy ta'lim berilishi, dunyoviy ilm-fanning butunlay e'tibordan chetda qolishi millat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotganini anglab yetdilar. Shu sababli, ular yangi usul maktablarini tashkil etish bilan birga,

o'quv dasturlariga dunyoviy fanlarni kiritishni o'zlarining asosiy pedagogik tamoyillaridan biri sifatida belgiladilar. Bu g'oya jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi eng muhim va inqilobiy qadami bo'ldi.

Jadidchilarning dunyoviy fanlarga bo'lgan munosabatini tushunish uchun avvalo ularning umumpedagogik falsafasini anglash zarur. Jadidchilar diniy ta'limni inkor etmagan, aksincha, uni saqlab qolgan holda zamonaviy ilm-fan bilan uyg'unlashtirish kerakligini ilgari surganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasi va ko'plab maqolalarida ilm-fansiz millatning taraqqiy eta olmasligini, zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo'lish uchun nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham egallash shartligini qayta-qayta ta'kidlagan. Behbudiy "Samarqand" gazetasidagi maqolalarida yozganidek, dunyo millatlarining taraqqiyot sabablarini ularning ilm-fanga, xususan tabiiy va aniq fanlarga bo'lgan e'tiborida ko'rgan. Ismoil Gasprinsky esa o'zining "Tarjumon" gazetasi orqali butun turkiy dunyoga murojaat qilib, zamonaviy ta'limning zarurligini, dunyoviy fanlarni o'qitmasdan turib millatni haqiqiy ma'rifatli qilish mumkin emasligini asoslab bergan.

Tabiiy fanlar orasida jadid maktablarida eng avvalo arifmetika – hisob faniga alohida o'rin berilgan. Jadidchilar kundalik hayotda, savdo-sotiqda, hunarmandchilikda va boshqa kasbiy faoliyatda matematikaning ahamiyatini yaxshi anglagan holda, bu fanni o'quv dasturining ajralmas qismi sifatida kiritganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov o'zi tashkil etgan maktabda arifmetikani boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitishni joriy etgan. O'quvchilar oddiy amallardan boshlab, bosqichma-bosqich murakkabroq hisob-kitob masalalarini yechishga o'rgatilgan. Arifmetika darslari nazariy bilim berish bilan chegaralanmay, amaliy mashqlar orqali mustahkamlangan – o'quvchilar bozor narxlarini hisoblash, yer maydonini o'lchash, vaqtni aniqlash kabi hayotiy vaziyatlarga doir masalalar yechganlar. Bu yondashuv an'anaviy maktablardan tubdan farq qilgan, chunki maktabi qadimlarda hisob fani umuman o'qitilmagan va bitiruvchilar oddiy arifmetik amallarni ham bajara olmagan.

Geografiya fani ham jadid maktablarining o'quv dasturida muhim o'rin egallagan. Jadidchilar yosh avlodning o'z vatanini, qo'shni mamlakatlarni va butun dunyoni bilishi zarurligini tushunganlar. Geografiya darslarida o'quvchilarga Turkistonning tabiiy sharoiti, aholisi, shahar va qishloqlari haqida ma'lumotlar berilgan, shuningdek, Rossiya imperiyasi va boshqa davlatlarning geografiyasi o'rgatilgan. Bu darslarda xaritalar va globuslardan keng foydalanilgan bo'lib, bu ko'rgazmali vositalar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirgan. Behbudiy o'zi Samarqandda tashkil etgan maktabda xarita va globus xarid qilib, geografiya darslarini zamonaviy usulda o'tkazgan. Geografiya fani orqali jadidchilar o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilim, balki dunyo haqida keng tasavvur ham shakllantirganlar, bu esa milliy ongini uyg'otishda ham muhim rol o'ynagan.

Tabiatshunoslik fani jadid maktablarida yana bir muhim dunyoviy fan sifatida o'qitilgan. Bu fan doirasida o'quvchilarga tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonot dunyosi, inson tanasi, ob-havo va iqlim haqida boshlang'ich bilimlar berilgan. Jadidchilar tabiatshunoslik fanini o'qitishda kuzatish va tajriba metodlarini qo'llashga harakat qilganlar – o'quvchilar tabiatga chiqib, o'simliklarni o'rganish, hayvonlarni kuzatish kabi amaliy mashg'ulotlar bajarganlar. Bu yondashuv o'quvchilarda tabiatga bo'lgan qiziqishni uyg'otgan va ularda ilmiy tafakkurning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirgan. Abdulla Avloniy o'zining pedagogik asarlarida tabiatshunoslik fanining bolalar tarbiyasidagi rolini alohida ta'kidlab, tabiat qonunlarini bilish insonga hayotda to'g'ri yo'l tanlashda yordam berishini qayd etgan.

Til o'qitish masalasi jadidchilar pedagogikasida alohida muhim o'rin tutgan va bu borada ular bir nechta yo'nalishda faoliyat ko'rsatganlar. Eng avvalo, ona tilida – turkiy tilda ta'lim berish jadid maktablarining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan. Maktabi qadimlarda ta'lim arab tilida olib borilgan va mahalliy aholining aksariyati dars mazmunini tushunmagan bo'lsa, jadid maktablarida barcha fanlar ona tilida o'qitilgan. Bu qaror nafaqat pedagogik, balki siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan, chunki ona tilida ta'lim berish milliy ongni mustahkamlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblangan.

Ona tilini o'qitishda jadidchilar savtiya – tovush usulini joriy etganlar. Bu usulga ko'ra, o'quvchilar avval harflarning tovushlarini o'rganganlar, keyin ularni bo'g'inlarga birlashtirganlar va nihoyat so'z va jumalarni o'qishga o'tganlar. Savtiya usuli maktabi qadimlarda qo'llanilgan hijjolah usulidan keskin farq qilgan – an'anaviy usulda o'quvchilar arab alifbosining harflarini nomlari bilan yodlagan va bu jarayon juda uzoq davom etgan. Munavvarqori Abdurashidxonov savtiya usulini Turkistonda birinchi bo'lib qo'llagan pedagoglardan biri bo'lib, u 1901 yilda Toshkentda ochgan maktabida bu usulni muvaffaqiyatli tatbiq etgan. Uning tajribasiga ko'ra, savtiya usuli orqali o'quvchilar uch-to'rt oy ichida o'qish va yozishni o'zlashtirib olganlar, holbuki maktabi qadimlarda bu jarayon uch-to'rt yilni talab etgan. Munavvarqori shuningdek, turkiy tilda darsliklar yaratish ishiga ham katta hissa qo'shgan va "Adibi avval" va "Adibi soniy" nomli o'quv qo'llanmalarini yozgan.

Arab tili jadid maktablarida ham o'qitilgan, biroq uning o'qitilish usuli an'anaviy maktablarnikidan tubdan farqlangan. Maktabi qadimlarda arab tili faqat diniy matnlarni o'qish maqsadida o'rgatilgan va grammatik qoidalar nazariy jihatdan yod oldirilib, amaliy ko'nikmalar shakllantirilmagan. Jadid maktablarida esa arab tili zamonaviy usullar asosida o'qitilgan – grammatika amaliy mashqlar orqali mustahkamlangan, o'quvchilar nafaqat diniy matnlarni, balki dunyoviy adabiyotni ham arab tilida o'qishga o'rgatilganlar. Fitrat o'zining "Rahbari najot" asarida arab tilini o'qitishning yangi metodlarini batafsil bayon qilgan va an'anaviy yondashuvning kamchiliklarini tanqid qilgan. U arab tili grammatikasini ona tili orqali tushuntirishni, amaliy mashqlar va dialoglar orqali mustahkamlashni taklif etgan.

Rus tili jadid maktablarining o'quv dasturiga kiritilgan yana bir muhim til bo'lgan. Jadidchilar Rossiya imperiyasi tarkibida yashayotgan turkistonliklarning davlat tilini bilishi zarurligi, bu bilim ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda teng huquqli ishtirok etishi uchun kerakligini yaxshi anglagan. Behbudiy o'z maqolalarida rus tilini bilishning ahamiyatini alohida ta'kidlab, bu tilni o'rganish millatning zamonaviy dunyoga integratsiyalashuvida muhim qadam ekanini asoslab bergan. Jadid maktablarida rus tili maxsus metodika asosida o'qitilgan – o'quvchilar avval oddiy so'z va iboralardan boshlab, bosqichma-bosqich murakkabroq matnlarni o'qish va yozishga o'rgatilganlar. Ba'zi jadid maktablarida rus tilini o'qitish uchun maxsus muallimlar taklif etilgan.

Jadidchilarning dunyoviy fanlarni o'quv dasturiga kiritish borasidagi sa'y-harakatlari oson kechmagan. Ular bir tomondan konservativ diniy doiralarning qarshiligiga, ikkinchi tomondan mustamlaka ma'muriyatining cheklash siyosatiga duch kelganlar. Konservativ ulamo vakillar dunyoviy fanlarni o'qitishni dindan chiqish sifatida talqin qilib, jadid maktablariga qarshi fatvolar chiqarganlar va mahalliy aholini bu maktablarga bolalarini berishdan qaytarishga uringanlar. Shunga qaramay, jadidchilar o'z maqsadlaridan qaytmaganlar. Ular gazetalar va jurnallar orqali keng targ'ibot ishlarini olib borgan, dunyoviy ta'limning diniy ta'limga zid emasligini asoslab bergan va amaliy natijalar orqali o'z haqligi isbotlaganlar. Jadid maktablari bitiruvchilarining bilim darajasi an'anaviy maktab

bitiruvchilarinikidan ancha yuqori bo'lganligi bu maktablarga bo'lgan ishonchni oshirgan va yangi maktablar sonining ko'payishiga sabab bo'lgan.

Dunyoviy fanlarning jadid maktablari o'quv dasturiga kiritilishi bir nechta muhim natijalar bergan. Avvalo, o'quvchilarning dunyoqarashi kengaygan va ular zamonaviy hayotga moslashish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlar. Tabiiy fanlar orqali o'quvchilarda ilmiy tafakkur shakllangan, ular tabiat hodisalarini xurofot emas, balki ilmiy nuqtai nazardan tushunishga o'rganganlar. Til o'qitish tajribasi esa o'quvchilarga turli madaniyatlar bilan muloqot qilish, turli tillardagi adabiyotni o'qish va o'z fikrini erkin ifodalash imkonini bergan. Bundan tashqari, dunyoviy fanlar orqali o'quvchilarning kasbiy imkoniyatlari ham kengaygan – ular nafaqat diniy xizmatchi, balki muallim, tabib, muhandis, savdogar va boshqa kasblarga yo'l topganlar.

Jadidchilarning dunyoviy fanlar sohasidagi tajribasi keyingi avlodlar uchun ham muhim meros bo'lib qoldi. Ularning pedagogik g'oyalari – ta'limda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, o'quvchini hayotga tayyorlash, ilmiy tafakkurni shakllantirish, ko'p tillilikni rag'batlantirish kabi tamoyillar bugungi kun pedagogika fanining asosiy prinsiplari bilan to'liq hamohangdir. Zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimida dunyoviy fanlarning markaziy o'rin tutishi, chet tillarini o'qitishga alohida e'tibor berilishi, tabiiy va aniq fanlarning ahamiyatini oshirish bo'yicha islohotlar olib borilishi jadidchilar boshlab bergan yo'lning davomi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda, jadidchilarning dunyoviy fanlar sohasidagi pedagogik merosi nafaqat tarixiy qimmatga, balki bugungi kun uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uni chuqur o'rganish va ilmiy tahlil qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 224 b.
3. Dolimov U. Jadid maktablari tarixi. – Toshkent: Sharq, 2006. – 312 b.
4. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 128 b.
5. Gasprinsky I. Tarjumon va ta'lim masalalari. – Toshkent: Fan, 2003. – 196 b.
6. Ibrohimov A. Turkistonda jadid maktablarida tabiiy fanlar o'qitilishi. // Pedagogika fanlari jurnali. – 2008. – №3. – B. 45-52.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 368 b.
8. Rajabov I. Markaziy Osiyoda ta'lim va tarbiya tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 244 b.
9. Saidov A. Jadidchilik harakati va dunyoviy ta'lim masalalari. // O'zbekiston tarixi. – 2011. – №2. – B. 33-41.
10. Xo'jayev A. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Akademnashr, 2007. – 216 b.